

KREDIT REYTING TIZIMINI JORIY ETISH ORQALI KREDITLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Shokirova Gulbahor Mo'mindjanovna

Andijon davlat texnika instituti

Buxgalteriya hisobi va menejment kafedrası assistenti

Sobirov Luqmonbek Xabibullo o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv fakulteti 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15559941>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kredit reyting tizimini joriy etish orqali kreditlash samaradorligini oshirish muammolari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Kredit reyting tizimining asosiy tamoyillari, uning tijorat banklari faoliyatidagi ahamiyati, banklarning kredit risklarini kamaytirishdagi roli va mijozlar bilan shaffof munosabatlarni ta'minlashdagi o'rni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: KATM, Standard & Poor's, Moody's, Fitch, kredit reyting tizimi, kredit xavfi, kredit portfeli sifati.

Hozirgi zamonaviy bank tizimida kreditlash amaliyoti iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, banklar tomonidan berilgan kreditlarning qaytarilish darajasi, kredit faoliyatining samaradorligi va xavfsizligi ularning ichki boshqaruv tizimiga, xususan, kredit qobiliyatini baholash mexanizmlariga chambarchas bog'liq. Ayniqsa, so'nggi yillarda bank tizimida yuzaga kelayotgan raqobatning kuchayishi, mijozlar bilan ishlashda yuqori sifatli yechimlarga ehtiyojning ortishi tufayli, banklar tomonidan kredit berishda ishonchli va shaffof mezonlarga asoslangan kredit reyting tizimini joriy etish zarurati ortayotgan kuzatilmoqda.

Kredit reyting tizimi- bu qarz oluvchining moliyaviy holatini, qaytarish salohiyatini va kredit xavfini kompleks baholashga qaratilgan analitik mexanizm bo'lib, uning joriy etilishi kredit berish jarayonidagi noaniqliklar, subyektiv qarorlar va kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu tizimni amaliyotga tatbiq etish orqali tijorat banklarida kreditlash jarayonini takomillashtirish, kredit portfelinin sifatinin oshirish va kreditlar qaytarilishini kafolatlash mumkin. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda moliya-bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, kredit xavflarini samarali boshqarish hamda xalqaro amaliyotlarga mos tizimlarni joriy etish kabi chora-tadbirlar doirasida kredit reyting tizimiga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Ammo bu borada amaliyotda turli muammolar mavjud bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Kreditlash amaliyotida xavflarni kamaytirish, qarz oluvchilarning moliyaviy holatini ob'ektiv baholash va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirishda kredit reyting tizimining ahamiyati beqiyosdir. Mazkur tizim asosan qarz oluvchining moliyaviy hisobotlari, daromad va xarajatlari, kredit tarixchasi, to'lov intizomi, mavjud qarz yuki va boshqa muhim moliyaviy ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilgan holda, unga reyting ballari yoki toifalari berishga asoslanadi. Bunda reyting ballari qanchalik yuqori bo'lsa, mijozning kreditga layoqatliligi shunchalik barqaror deb baholanadi.

Kredit reyting tizimi orqali banklar quyidagi asosiy ustunliklarga ega bo'ladi:

- Kredit xavfini aniqlash va nazorat qilish samaradorligi oshadi;
- Kredit portfelining sifati yaxshilanadi;
- Qarzlarning qaytarilmasligi ehtimoli kamayadi;
- Bankning umumiy likvidligi va moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi;
- Mijozlarga nisbatan adolatli va shaffof kredit qarorlari qabul qilinadi.

Jahon amaliyotida kredit reyting tizimlari keng qo'llaniladi. Masalan, AQShda Equifax, Experian, TransUnion kabi agentliklar jismoniy shaxslarning kredit reytingini yuritadi va ularning moliyaviy muomalalarda ishtirok etishida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Banklar ba’zi mijozlarga tez va muammosiz kreditlar beradi, boshqalarga esa ko‘pincha rad etadi. Buning sababi “skoring” deb nomlangan mijozni baholash usulidir. Sizning skoring ballingiz qanchalik yuqori bo‘lsa- bankning ishonchi shunchalik yuqori bo‘ladi. Skoring tizimi qanday ishlashi va kredit reytingingizni qanday oshirish mumkinligini aytib beramiz”¹. **Kredit skoringi** - bu Sizning kreditni to‘lay olish qobiliyatingizni ballar berish orqali baholash tizimidir. Ya’ni, **500** ballik tizimda baholanadi. Sizga beriladigan ballar muddati o‘tgan qarzdorlikning mavjud yoki yo‘qligi, shuningdek, daromadlarga, faoliyat turiga, yosh va turmush holatlari hamda boshqa shu kabi omillarga bog‘liqdir.

Ya’ni, kredit skoringi, sizning nafaqat avvalgi kreditlardan qarzingiz bor yoki yo‘qligini, balki sizning daromadingiz qanday, yoshingiz, olinayotgan mablag‘ni qaytarish loyohatigiz qay darajadiligini baholaydi.

Shuningdek, “skoring yoki kredit reytingi -bu bankning kredit berish yoki qanday shartlar asosida berish mumkinligini hal qilishiga yordam beradigan baholash tizimi. Shu yo‘l orqali vijdonsiz mijozlarga qarz berishdan bank o‘zini himoya qiladi va pulini yo‘qotmaydi, mijoz esa qarzni tezroq va ehtimol yanada qulayroq shartlarda oladi”².

Skoring jarayoni to‘liq avtomatlashtirilgan. Qaror maxsus dastur tomonidan qabul qilinadi: bank menejeri kerakli ma'lumotlarni kiritadi va kompyuter skoring ballini hisoblaydi. Yaxshi kredit reytingi shaxs o‘z moliyasini boshqara bilishi va qarzlarni o‘z vaqtida qaytarishidan darak beradi. Bundan tashqari, barcha ma'lumotlar bank ma'lumotlar bazasida saqlanadi va undan yangi kreditlar berishda foydalanish mumkin, qarz oluvchi hujjatlar to‘plamini qayta to‘plashi shart emas.

*Kredit tarixi sizning qarz oluvchi sifatidagi ma'lumotingizdir. Kredit tarixining subyekti bo‘lib ma'lumoti yig‘ilgan qarz oluvchi shaxs hisoblanadi*³.

Kredit tarixida quyidagilar ma'lumotlarni ko'rish mumkin:

1. Kredit tarixiga so‘rov yuborgan tashkilot.
2. Kredit olish uchun topshirilgan barcha arizalar va ular bo'yicha qabul qilingan qarorlar.
3. Kreditlar qanday qaytarilgan va muddati o‘tgan to‘lovlar bo‘lganmi.

Shuningdek, yirik korporatsiyalar va davlatlar reytingi Standard & Poor’s, Moody’s va Fitch kabi xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanadi. Bu reytinglar investorlar, banklar va boshqa moliyaviy institutlar uchun ishonchli axborot manbai hisoblanadi. Bu tizim kreditlash jarayonining butun bosqichlarini standartlashtiradi, xavfga asoslangan foiz stavkalarini belgilash imkonini yaratadi, va eng muhimi, kredit ajratishda iqtisodiy ob’ektivlikni ta’minlaydi.

¹ <https://uzum.uz/media/uz/bank-skoringi/>

² <https://uzum.uz/media/uz/bank-skoringi/>

³ <https://depozit.uz/news/kredit-tarixi-bu-nima-uni-kim-talab-qiladi-va-uning-muhimligi-nimada>

O'zbekistonda bu kabi xizmat turini KATM markazi ko'rsatadi. Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, "xususan, 2023-yilda KATM kredit byurosi axborot bazasidan kredit tarixiga oid olingan ma'lumotlar soni qariyb 2 barobarga oshib, **506,4** mingga yetgan. KATM kredit byurosi bazasidagi kredit axboroti subyektlariga (*jismoniy va yuridik shaxslar*) oid ma'lumotlar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga 15,4 mln tani tashkil etib, shundan 93,9 foizi (*qariyb 14,5 mln tasi*) jismoniy shaxslar va 6,1 foizi (*942 mingtasi*) yuridik shaxslar hissasiga to'g'ri keladi. 2023-yil davomida KATM kredit byurosi bilan kredit axboroti almashinuvi bo'yicha shartnomalar tuzgan kredit axboroti foydalanuvchilari soni 151 taga ko'payib, **630** taga yetdi"⁴.

1-rasm

Tashkilotlar	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tijorat banklari	30	32	33	31	35
Mikromoliya tashkilotlari	55	59	68	83	84
Lombard tashkilotlari	60	62	70	80	84
Lizing tashkilotlari	3	5	8	20	31
Sug'urta tashkilotlari		1	1	4	8
Reteyler tashkilotlar	13	70	175	256	381
Boshqalar				5	7
Jami	161	229	355	479	630

2023-yilda KATM foydalanuvchilari

Amaliy jihatdan, kredit reyting tizimini samarali joriy etish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ishlar olib borilishi lozim:

- 1.Yagona reyting standartlarini ishlab chiqish** — har bir bank o'z ichki mezonlariga ega bo'lishi mumkin, ammo bu mezonlar milliy standartlar asosida shakllanishi, yagona metodologiyaga asoslanishi kerak.
- 2.Markazlashtirilgan kredit byurosi faoliyatini kuchaytirish** — bu byuro barcha banklar va moliya institutlarining mijozlari to'g'risidagi kredit tarixini yig'ish, saqlash va taqdim etish bilan shug'ullanishi kerak.
- 3.Mustaqil reyting agentliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash** — tijorat asosida ishlaydigan, ishonchli va professional baholovchilar orqali reytinglar aniqlanishi kredit tizimining ishonchliligini oshiradi.
- 4.Bank xodimlari malakasini oshirish** — reyting tizimidan to'g'ri foydalanish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish ko'nikmalarini oshirish dolzarb masala hisoblanadi.
- 5.Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish** — avtomatlashtirilgan reyting tizimlari orqali inson omilini kamaytirish, tezkor va ishonchli baholash tizimini shakllantirish mumkin.

Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish, to'lov intizomini shakllantirish orqali reyting tizimining amalda samarali ishlashiga

⁴ cbu.uz. Markaziy bank 2023-yillik hisoboti

zamin yaratiladi. Reytingga ega bo'lgan mijozlar kredit olishda ustuvorlikka ega bo'lishadi, bu esa ularda moliyaviy intizom va mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Shu tariqa, kredit reyting tizimini to'liq joriy etish orqali nafaqat banklarning kredit portfeli sifati oshadi, balki butun bank tizimining moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi, mijozlar o'rtasida sog'lom raqobat va ishonchli hamkorlik muhiti shakllanadi.

Skoring tizimini aldash juda murakkab bo'lib, buning jiddiy salbiy oqibatlari bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, kredit reytingingizni oddiy va xavfsiz usullar yordamida yaxshilash imkoniyati mavjud:

- Kredit, jarima va kommunal to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirish;
- Kredit tarixingizni muntazam tekshirib turish va xatolik aniqlansa, bank yoki kredit byurosiga murojaat qilib uni tuzatish;
- Keraksiz kredit olish uchun ariza bermaslik, chunki har bir rad javobi kredit reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;
- Agar kredit tarixi mavjud bo'lmasa, mikrocredit tashkilotlaridan kichik miqdorda qarz olib, uni belgilangan muddatdan oldin qaytarish.

Xulosa qilganda, Kredit reyting tizimining joriy etilishi, avvalo, banklar uchun kredit risklarini kamaytirish, qarzlarini qaytarmaslik holatlarining oldini olish, mijozlar bilan shaffof va adolatli munosabatlarni shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, reyting tizimi bank-mijoz o'rtasidagi ishonchni oshiradi, kredit resurslarini samarali taqsimlash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Tijorat banklarining barqaror faoliyat yuritishida kredit portfelining sifati va kredit xavflarini samarali boshqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, kreditlash amaliyotida zamonaviy vosita bo'lmish kredit reyting tizimini joriy etish dolzarb va strategik masala sanaladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sindarov F. STANDART&POOR'S GLOBAL REYTING AGENTLIGI TOMONIDAN O'ZBEKISTONNING REYTINGINI BAHOLASH AMALIYOTI //International Finance and Accounting. – 2022. – T. 2022. – №. 1. – C. 25.
2. Dushaboyev J. TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH //Journal of science-innovative research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 567-577.
3. <https://infokredit.uz/about/scoring>
4. <https://uzum.uz/media/uz/bank-skoringi/>
5. <https://uzum.uz/media/uz/bank-skoringi/>